UDK: 811.11-112 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a222**

AUTENTIK MATNDA LAKUNALARNING IFODALANISHI

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ЛАКУН В АУТЕНТИЧНОМ ТЕКСЕ

REPRESENTATION OF LACUNAS IN THE AUTHENTIC TEXT

Latipov Sherzodbek Foziljon o‘g‘li[1]

[1]Latipov Sherzodbek Foziljon o‘g‘li – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchsi

Annotatsiya

Mazkur maqolada autentik matnlar ijtimoiy-madaniy lakunalarga boyligi hamda madaniyatlararo yondashuv, tilning verbal-semantik va kognitiv tezaurusining maxsus qatlami bo‘lgan ijtimoiy-madaniy lakunalar haqida fikr yuritilgan. Lakuna aniq bir vaziyatda paydo bo‘lib, so‘zning semantik strukturasini oydinlashtirish natijasida, so‘zni izohlash, sharxlash yordamida lakuna bartaraf etilishi autentik matnlarni idrok etish va anglash jarayoni sanalishi misollarda izohlandi.

Аннотация

В данной статье выражается, что аутентичные тексты богаты социокультурными лакунами и межкультурным подходом, рассматриваются социокультурные лакуны, которые представляют собой особый слой вербально-семантического и когнитивного тезауруса языка. Лакуна появилась в конкретной ситуации, в результате уточнения смысловой структуры слова, устранения лакуны с помощью толкования слова, на примерах разъяснялся процесс восприятия и понимания аутентичных текстов.

Abstract

This article talks about authentic texts that they are rich in socio-cultural lacunae and intercultural approach, socio-cultural lacunae are a special layer of the verbal-semantic and cognitive thesaurus of the language. The lacuna appeared in a specific situation, as a result of clarifying the semantic structure of the word, the elimination of the lacuna with the help of interpreting the word, the process of perceiving and understanding authentic texts was explained in examples.

***Kalit so‘zlar**: lakuna, autentik matn, kognitiv tezaurus, semantik struktura.*
***Ключевые слова**: лакуна, аутентичный текст, когнитивный тезаурус, семантическая структура.*
***Key words**: lacuna, authentic text, cognitive thesaurus, semantic structure.*

KIRISH

Tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi til o‘rganishga madaniy-lingvistik va kommunikativ-faoliyat qadriyatlari, bilimlari va xulq-atvor me’yorlari prizmasi orqali qarash zaruriyatini vujudga keltiradi. Til sohiblari lingvistik birliklar tadqiqida lingvomadaniy yondashuvlar (madaniyatlararo, chog‘ishtirma va lingvomadaniy) asosida lisoniy olam manzarasini hosil qiladilar. Ayni madaniyatlararo yondashuv, tilning verbal-semantik va kognitiv tezaurusining maxsus qatlami bo‘lgan ijtimoiy-madaniy lakunalarni, ya’ni ekvivalent bo‘lmagan lingvistik va xulq-atvor birliklarini o‘rganishda ayniqsa muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda globallashuv va integratsiya sabab tilning kumulyativ funksiyasiga e’tibor kuchayib bormoqda, tilni madaniyat bilan birga o‘rganish va o‘rgatish, tilni madaniyat va qadriyatlarning targ‘ib etuvchi vosita sifatida qarash, lisoniy birliklarning diskursiv hamda psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda badiiy nutqda antropotsentrizm verbal markerlarining semantik-stilistik, kommunikativ-pragmatik, kognitiv, madaniy jihatlarini tadqiq etishga e’tibor dolzarblik kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tillarni qiyosiy o‘rganish jarayonida *oraliq, lakuna, zid so‘zlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dog‘lar, tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar, muqobilsiz, nol so‘z, muqobilsiz yoki fonli leksika, tasodifiy lakunalar, tarjimasiz leksika* kabi atamalar bilan nomlanib kelayotgan lakuna autentik matnda namoyon bo‘ladi. Autentik matnlar ijtimoiy-madaniy lakunalarga boyligi bilan ajralib turadi.

T. F Yefremova “Rus tilining yangi lug‘ati”da autentik matnni o‘zida millat va xalq qadriyatlarini saqlagan matnning asl nusxasi sifatida talqin etadi. Bunday matnda lisoniy birliklar bilan birga muayyan xalqning qiyofasini saqlagan so‘zlar, iboralar, paremiologik birliklar uchraydi va ularning aksariyati lakuna sifatida voqelanadi.

Lakuna termini tilshunoslik ilmida ilk bor kanadalik olimlar J.Vine va J.Darbelnelar tomonidan qo‘llanilgan. Ular “Frantsuz va ingliz tillarini qiyoslash uslubi” nomli asarida lakunaga ikki til qiyosida aniqlanadigan lisoniy hodisa ekanligini qayd etib, “Bir tildagi so‘zning boshqa tilda muqobili topilmagan o‘rinlarda lakuna hodisasi voqelanadi” deyiladi. [1]. Lakuna aniq bir vaziyatda paydo bo‘ladi, so‘zning semantik strukturasini oydinlashtirish natijasida, ya’ni so‘zni izohlash, sharxlash yordamida lakuna bartaraf etiladi.

Tilga olingan yondashuvlarga mos ravishda, ijtimoiy-madaniy lakunalarni o‘rganishning quyidagi usullari tanlanadi: kognitiv, interaktiv, semantik xaritalar (freymlar) tuzish, tarjima-talqin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Autentik matnni idrok etish va anglash jarayonida bilimlar lisoniy olam manzarasining verbal-semantik va kognitiv tezauruslarida to‘planadi, ya’ni ijtimoiy-madaniy lakunalarni ongli ravishda o‘zlashtirish – ushbu birliklarni tushunish va nutqda ishlatishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Lakunalar mavjud bo‘lgan autentik matnni o‘qish va tinglab tushunish asosida ijtimoiy-madaniy til birliklarini idrok etish jarayonining ketma-ketligi quyidagi amallar va harakatlarni o‘z ichiga oladi: aniqlash, lakunani izohlash va tushunish, og‘zaki va yozma nutqda ijtimoiy-madaniy lakunalarni bartaraf etish strategiyasidan foydalanish.

Ma’lumki, muayyan tillarning leksikasi aynan bir-biriga to‘la mos kelmaydi, chunki leksemalarning semantik tarkibida albatta o‘zgarishlar uchraydi, so‘zlarning ekvivalentligida ham ularning butunlay bir-biriga muqobil, mos bo‘la olmasligini ko‘rishimiz mumkin. Ta’kidlash joizki, turli millatlarda ayni bir kontsept bir-biriga o‘xshamagan madaniy semalarga ega bo‘ladi. Masalan, ilon kontsepti o‘zbek tilida yovuzlik, tajavuzkorlik timsoli sifatida namoyon bo‘lsa, yapon madaniyatida u go‘zallik semasi bilan voqelanadi. Garchi ilon kontsepti ikki tilda uchrasa-da, lisoniy shaxslarning idroki, madaniyati va qadriyatlari, diniy qarashlariga ko‘ra ma’lum bir semadagi bo‘shliq o‘zbek tilida lakunani hosil qilgan. Yoki *joniga qasd qilmoq* tushunchasi bilan muqobil sanalgan *xarakiri* leksemasining semalar tarkibidagi bir-biriga o‘xshashlik bo‘lsa-da, islom olamida *joniga qasd qilmoq* katta gunoh, yapon qadriyatida esa sharaf, burch deb qaralgani bois, *xarakiri* lakuna sifatida baholanadi. Shoir E.Vohidovning “Nega yapon yuz yil yashar?” nomli she’riga ayni shu lakunani olib kirib, uning “o‘zini yetti marotaba pichoqlab yuborish” jarayoniga urg‘u beradi hamda xarakiri lakunasini ajoyib tarzda dekodlaydi:

Nega yapon yuz yil yashar-u
O‘zbek buncha yoshga bormaydi?
Chunki yapon bizdek qorong‘u
Sahar turib oshga bormaydi.
Ta’ziyada el ko‘zi uchun
Ming kishilik ziyofat qurmas.
Hayiti yo‘q, bel bog‘lab uch kun
Shamday qotib ko‘chada turmas.
Garchi bizdan yuz bor farovon,
Garchi bizdan yuz karra to‘qdir.
To‘y xarjida yuzta boy yapon
Bir kambag‘al o‘zbekcha yo‘qdir.
Bu so‘zimni yaponga aytsam
Dedi battar qisib ko‘zini:
—Yapon bundoq yasholmas hech ham,
—**Xarakiri** qilar o‘zini.

Ko‘rinadiki, lakunalar matnda milliy kolorit, kitobiy uslubga xoslik, diniy bo‘yoqdorlik xususiyatlarini ifodalash, shu bilan bog‘liq holda qo‘shimcha uslubiy ottenkalar, ijobiy yoki salbiy munosabat, pragmatik ma’no ifodalashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa shuki, lakuna ikki til materiali taqqoslanishi natijasida paydo bo‘ladigan bo‘shliqdir, ya’ni xalq hayotida, insoniyat taraqqiyotida, o‘simlik va hayvonot dunyosida mavjud bo‘lgan muayyan hodisa ma’lum bir tilda aniq leksemalar bilan ifodalansa, ikkinchi bir tilda semantik, tushunchaviy nuqtai nazardan bor bo‘lsa ham, shakliy ifodaga ega bo‘lmaydi. Bu esa olamning lisoniy manzarasi turli millatlarda turlicha shakllanganini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vinay J., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l’anglais. – Paris: 1958. P.10

2. Xolmonova Z., Saidahmedova O., Nurillayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi /monografiya/. – T.: NAVRO‘Z, 2018. – B. 76.

3. Yuldasheva D.M.Anthropotsentris Approash To Shildren`S Speesh Study. Sestion 2: Linguistiss Theory,Applied Linguistiss. Sollestion Of Materials Of The International Online Sonferense.Www.Researsh-Support-Senter.Som 2020.92-95

4. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speesh Development Of Presshool Shildren. Epra Internashinal Jurnal Of Multidissiplinary Researsh(Ijmr). Impast Fastor: 7.6.11.November.

5. ДМ Юлдашева, Д Асқарова, М Зоҳидова. Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. Academic research in educational sciences 2 (2), 926-931.

6. ЮД Махамадалиевна. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. Ulrich`s Periodicals Directory.

8. ДМ Юлдашева. Синтактик такрорларнинг бадиий-эстетик имкониятлари Международный журнал ИСКУССТВО СЛОВА. 2019.5-son.

9. YD Maxamadalievna. Use of presidential names in uzbek children's texts. Gospodarka i Innowacje. 22, 68-70.

10. ДМ Юлдашева. Болалар фольклорида креол (уйғун) матннинг ифодаланиши. Молодой ученый, 607-609.